



O‘ZBEKISTONNING BRITANIYADAGI ELCHIXONASIDA O‘ZBEK TALABALARI TOMONIDAN “GAMLET” NAMOIYISH ETILADI

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Teatr san‘ati fakultetining 9 nafar talabasi ertaga 12 aprel kuni london

safariga jo'nab ketishadi.

Talablar Buyuk Britaniyaning san'at va madaniyat sohasidagi mashhur Rouz Brufort kollejida bo'lib, u yerda yilda bir marotaba o'tkaziladigan "Talabalar spektakl festivali"da ishtirok etib qaytishadi.

Festivalda yosh teatrchilarimiz tomonidan Shekispinning "Gamlet" asari asosida sahnalashtirilgan teatr tomoshasi namoish etiladi. Unda Gamlet rolini "dramatik teatr va kino aktyorligi" yo'nalishi birinchi bosqich talabasi Bunyodbek Ro'zimuhamedov hamda uning sevgilisi Afelya rolini shu yo'nalishning 3 bosqich talabasi Dilnora O'ljabayevalar ijro etishadi.



Aytib o'tish lozimki, talabalarning Britaniya safari O'zbekistondagi Britaniya kengashi hamda O'zbekistonning Britaniyadagi elchixonalari tashabbusi bilan tashkil etilga. Shuningdek talabalar 14 aprel kuni O'zbekistonning Britaniyadagi elchixonasida ham teatr tomoshasini namoyish etishadi.



0'zDSMI Axborot xizmati